

## YEVROPA VA MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI: TAHLIL VA PROGNOZLAR

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan "Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: bandlik va farovonlik" hisobotida qayd etilganidek, bozorlari shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (mintaqadagi 22 ta davlatni o'z ichiga olgan) iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

## ВСТРЕЧА ПО ИНВЕСТИЦИОННОМУ И ПРОМЫШЛЕННОМУ СОТРУДНИЧЕСТВУ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ФРАНЦИЕЙ

Продолжение → 8 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

#82 (3276) 14.10.2025

# BIZNES DAILY BIRJA

GAZETA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO'MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

## O'zbekiston Prezidenti MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-oktyabr kuni Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'inishida ishtirok etdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon raisligida o'tgan sammit ishida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyan hamda MDH bosh kotibi Sergey Lebedev ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, Hamdo'stlik doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari nutqining avvalida global siyosat va iqtisodiyotdagi oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan jarayonlar hamda xalqaro institutlarning roli zaiflashib borayotganiga qaramas-



dan, MDH o'zining barqarorligi, samaradorligi va zarurligini namoyish etishda davom etayotganini ta'kidladi.

O'n yillar davomida yo'lga qo'yilgan mexanizmlar va aloqalar tufayli iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar masalalarning barcha yo'nalishlarida yaqindan hamkorlik qilinmoqda.

**- Biz MDH doirasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, shuningdek, tabiiy sheriklarimiz bo'lgan mamlakatlar bi-**

**lan amaliy hamkorlikning samaradorligini oshirishdan manfaatdormiz, - dedi O'zbekiston Prezidenti.**

So'ng mamlakatimiz yetakchisi Hamdo'stlik doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Jahon iqtisodiyotidagi vaziyatning keskinlashishi, proteksionizmning kuchayishi va barqaror rivojlanish yo'lida yangi xavf-xatarlar yuzaga kelayotganini hisobga olgan holda iqtisodiy

sheriklikni kengaytirish tashkilotning so'zsiz ustuvor yo'nalishi ekanini ko'rsatib o'tildi.

O'zbekistonning MDHdagi sheriklari bilan tovar ayirboshlash hajmi o'tgan yili 11 foizga oshgani va bu ko'rsatkich joriy yilda ham o'sishda davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bunday ko'rsatkichlar tarmoqlararo kooperatsiya chuqurlashayotgani va o'zaro investitsiyalar oqimi ko'payib borayotgani tufaylidir.

Mavjud imkoniyatlarni yanada to'liq ishga solish, hamkorlikning bugungi sur'atini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston Prezidenti birgalikdagi sa'y-harakatlarni quyidagi ustuvor yo'nalishlarga qaratishni taklif etdi.

**Birinchidan, tovar ayirboshlashni ko'paytirish uchun yanada qulay sharoitlarni shakllantirish.**

Alohida tovarlarni, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish jarayonida tartib-taomil va talablarni soddalashtirish va milliy bozorlarga kirish, jumladan, davlat xaridlarida ishtirok etish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek MDH Iqtisodiy kengashi doirasida tashqi kon'yunktura o'zgarishlariga tezkor javob berish va savdo oqimlari yo'nalishini o'zgartirish bo'yicha mexanizmlarni ishga tushirish, texnik to'siqlar va muvofiqlikni baholashga oid hujjatlarni tan olish to'g'risidagi bitimlar loyihalarini kelishish borasidagi ishlarni faollashtirish maqsadga muvofiq ekaniga e'tibor qaratildi.

**Ikkinchidan, transport sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish.**

MDH makonidagi transport tarmog'ida mavjud yo'laklar samaradorligini pasaytirayotgan muammoli holatlar hamon saqlanib qolayotgani qayd etildi. Bu barcha turdagi transportlar bilan integratsiyalashgan axborot-logistika markazlarini tashkil etishni taqozo etmoqda.

Yuk tashish infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish muhimligini hisobga olib, O'zbekistonda transport sohasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish masalalari bo'yicha konferensiya o'tkazish tashabbusi ilgari surildi.

**Uchinchidan, o'zaro investitsiyalar o'sishini rag'batlantirish va kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash.**

Bu borada maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tayyorlash, kooperatsiyani chuqurlashtirish va biznesni jalb qilgan holda innovatsion startaplarni ilgari surish uchun MDHning Venchur platformasini yaratish, kelgusi yilda Toshkentdagi "INNOPROM" ko'rgazmasi negizida Innovatsion sanoat forumini o'tkazish taklif qilindi.

Davomi → 2-betda



Jarayon

Raqamli texnologiyalar vaziri AQShning yetakchi kompaniyalari bilan uchrashuv o'tkazdi

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Сотрудничество в области здравоохранения между странами СНГ будет укрепляться

→ 8 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

РЕКЛАМА  
VA E'LONLAR  
BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54



telegram  
BIZNES DAILY BIRJA

Boshlanishi → 1-betda

# O'zbekiston Prezidenti MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladi

## To'rtinchidan, energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

O'zbekiston rahbari ta'kidlaganidek, bugungi kunda MDHdagi sheriklar bilan an'anaviy va muqobil energiya manbalaridan foydalanish, jumladan, atom elektr stansiyalari qurilishi sohasida qator yirik strategik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari MDH mamlakatlarida energetika sektorini innovatsion rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish va amalga oshirishni taklif etdi.

## Beshinchidan, raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik.

Davlatimiz rahbari joriy yil avgust oyida Samarqandda o'tgan "MDHda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish" mavzusidagi xalqaro forum bu sohadagi kooperatsiya borasida o'zaro qiziqish va imkoniyatlar



ortib borayotganini ko'rsatganini ta'kidladi. Shu munosabat bilan ushbu sohada amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha ko'p tomonlama harakatlar rejasini ishlab chiqishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbari fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohaslarida qo'shma loyiha va dasturlarni

kengaytirish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi.

**- Mamlakatlarimizda ta'lim sektori va mehnat bozori jadal rivojlanayotganini hisobga olib, Dip-lomlar, malaka va akademik dasturlarni o'zaro tan olish to'g'risida yangi**

**davlatlararo kelishuvni tayyorlash, professional standartlar va malaka talablarini uyg'unlashtirish mexanizmini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz, - dedi Prezident.**

Kelgusi yilda kun tartibiga innovatsion ekotizimlarni shakllantirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash uchun Yoshlar laboratoriyasini yaratish masalasini kiritgan holda, MDH Yoshlar forumini Xivada o'tkazishga tayyorlik bildirildi.

Mintaqaviy xavfsizlik masalalariga to'xtalar ekan, Prezidentimiz tashqi siyosiy idoralar va maxsus xizmatlar o'rtasidagi tizimli va yaqin aloqalarni davom ettirish muhimligiga e'tibor qaratdi. Afg'onistondagi vaziyat alohida e'tiborni talab qiladi.

**- O'zbekiston Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlik, osoyishtalik va barqaror**

**taraqqiyotni ta'minlashning qat'iy tarafdori ekanini ta'kidlayman. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatda yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda birgalikda ishtirok etish imkoniyatlarini ko'rib chiqishni taklif etamiz, - dedi mamlakatimiz yetakchisi.**

So'zining yakunida Shavkat Mirziyoyev Sergey Lebedevning MDH Bosh kotibi lavozimiga qayta tayinlanishini qo'llab-quvvatladi hamda Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga tashkilotga raislikni qabul qilib olgani munosabati bilan muvaffaqiyatlar tiladi.

Yig'ilishda Hamdo'stlikka a'zo boshqa mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari ham so'zga chiqdi.

Sammit yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha kelishuv va qarorlar to'plami imzolandi.

## Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: tahlil va prognozlar

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan "Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti: bandlik va farovonlik" hisobotida qayd etilganidek, bozorlari shakllanayotgan va iqtisodiyoti rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (mintaqadagi 22 ta davlatni o'z ichiga olgan) iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashdi.

Shu bilan birga, ushbu mamlakatlar saqlanib qolayotgan global va mintaqaviy tahdidlarga qaramay, barqarorlik tendensiyalarini namoyish etishda davom etmoqda. 2025-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2,4 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda, bu asosan Rossiyada iqtisodiy o'sishning sekinlashishi tufayli 2024-yilda qayd etilgan 3,7 foiz darajasidan pasayish hisobidandir. Mintaqa umumiy ishlab chiqarishining qariyb 40 foizini tashkil etuvchi ushbu mamlakatni hisobga olmaganda, o'sish sur'atlari deyarli o'zgarishsiz qolishi mumkin, ya'ni joriy va kelgusi yillarda 3,3 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida kelajakdagi iqtisodiy o'sish o'rtacha sur'atlarda — 2026-2027-yillarda o'rtacha 2,6 foizgacha bo'lishi aytilmoqda. Rossiyada iqtisodiy o'sishning keyingi yilda 0,8 foizgacha sekinlashishi, keyinchalik 2027-yilda 1 foizgacha biroq o'sishi taxmin qilinmoqda. Shu bilan birga, Turkiya iqtisodiyoti mustahkamlanishda davom etadi va 2027-yilda o'sish sur'ati 4,4 foizga yetadi. Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari-dagi o'sish, xususiylar iste'mol, ish haqi, pul o'tkazmalari va ijtimoiy to'lovlar hajmining o'sishi, infratuzilmaga investitsiyalar davom etishi, shuningdek, xalqaro savdoning bosqichma-bosqich tiklanishi bilan qo'llab-quvvatlanishi kutilmoqda. Shunga qaramay, 2026-2027-yillarda mintaqaviy o'sish prognozlarining pasayishi bo'yicha sezilarli xatarlar saqlanib qolmoqda. Xususan, tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirishdagi sustkashlik Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida unumdorlik o'sishi sur'atlarini tiklash imkoniyatla-



rini cheklamoqda. Geosiyosiy noaniqlik, xalqaro savdodagi keskinlik, shuningdek, barqaror inflyatsion bosim mintaqa iqtisodiyotlarining zaifligini oshirmoqda.

Hisobotda keltirilishicha, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyotlari orasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari ketma-ket uchinchi yil eng yuqori bo'lib qolmoqda. Prognozlarga ko'ra, ushbu submintaqada 2025-yilda o'sish 5,9 foizni tashkil etadi. O'sishga Qozog'istonda neft qazib olishning ko'payishi, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda pul o'tkazmalari hajmining o'sishi, shuningdek, submintaqada mamlakatlarida davlat va xususiy investitsiyalarining ko'payishi yordam beradi. Tahlillarga qaraganda, 2026-yilda Markaziy Osiyoda o'sish 5 foizgacha pasayadi. Shunga qaramay, submintaqada mamlakatlar Yevropa va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari, jumladan, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy Kavkaz, G'arbiy Bolqon submintaqalari, shuningdek, Rossiya va Turkiya bilan taqqoslaganda YaIM o'sish sur'atlari bo'yicha yetakchi o'rinni saqlab qoladi. O'zbekiston 2025 va 2026-yillarda

Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan beshta iqtisodiyot qatorida qoladi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishi 2025-yilda 6,2 foizni, 2026-yilda esa 6 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha boshqa yetakchilar orasida Qirg'iziston Respublikasi (2025-yilda 9,2 foiz va 2026-yilda 6,5 foiz), Tojikiston (mos ravishda 7,6 foiz va 5,2 foiz), Gruziya (7 foiz va 5,5 foiz) va Qozog'iston (5,5 foiz va 4,5 foiz) bor. Hisobotning maxsus bo'limi mintaqadagi bandlik masalalariga bag'ishlangan. Unda ta'kidlanishicha, infratuzilma, jismoniy va inson kapitaliga investitsiyalar, jumladan, ta'lim va malaka oshirish, biznes muhitini yaxshilash va xususiy investitsiyalarni jalb qilish Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida unumdorlik o'sishini sezilarli darajada tezlashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ko'proq ish o'rinlarini yaratish va ularning sifatini oshirish uchun mamlakatlar bandlikning muhim asoslari — inson kapitali va infratuzilma-ga investitsiyalarni ko'paytirishlari kerak. Bundan tashqari, ta'lim, ayniqsa, professional va oliy ta'lim sifatini yaxshilash muhimdir. Xotin-qizlar va yoshlar min-

taqada mehnatga layoqatli aholi sonining kamayishini qoplashi mumkin bo'lsa-da, ularning salohiyatidan haligacha to'liq foydalanilmayotgani ta'kidlanadi.

Jahon banki hisobotida qayd etilishicha, Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Xususan, Qozog'istonda qishloq xo'jaligida qayta ishlashni, eng avvalo, bug'doy yetishtirish va chorvachilikni yanada rivojlantirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar saqlanib qolmoqda. Qirg'iziston Respublikasida katta gidroenergetika salohiyati mavjud va quyosh energetikasi sohasi rivojlanmoqda, shuningdek, moliya, turizm va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohaslarida eksportga yo'naltirilgan xizmatlar shakllantirilmogda. Tojikiston uchun asosiy imkoniyatlar mamlakatning katta gidroenergetika salohiyatidan foydalanish, transport yo'laklari logistikasini yaxshilash va turizm sohasini rivojlantirishdan iborat. O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlari kimyo sanoati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari va meva-sabzavotchilikni qamrab oladi. Kimyo sanoatida raqobatbardoshlik va energiya samaradorligini oshirish ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tartibga solish va nazorat funksiyalarini tijorat faoliyatidan ajratish, shuningdek, kimyoviy mahsulotlarga subsidiyalar, narx cheklovleri va eksport nazoratini bosqichma-bosqich bekor qilishga bog'liq. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektori salohiyati keng polosali internet qamrovi va foydalanish imkoniyatining yetarli emasligi bilan cheklanmoqda. Meva-sabzavotchilik sohasida xalqaro standartlar va sertifikatlashni joriy etish, eksport qilishda oldindan to'lov talablarini bekor qilish, shuningdek, zamonaviy sug'orish tizimlariga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi ekinlari sohasida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish orqali eksportni ko'paytirish mumkin.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining Bank-moliya va kapital bozorlarini o'rganish sho'basini.

## Bank sektori: yangilangan reyting natijalari



Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan 2025 yil uchinchi choragi yakuni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot O'zbekiston bank sektori barqarorligi izchil mustahkamlanayotganini ko'rsatdi.

Yirik banklar respublika bo'ylab keng filiallar tarmog'i, diversifikatsiya qilingan aktivlar va ishonchli mijozlar bazasi orqali o'z yetakchi o'rnini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, o'rta segmentda banklar o'rtasida raqobat kuchayib, pozitsiyalar qayta taqsimlanmoqda. Banklar faollik indeksi asosida yangilangan banklar reytingi natijalari respublikada faoliyat yuritayotgan 35 ta tijorat bankini qamrab olgan bo'lib, ulardan 20 tasi katta, qolgan 15 tasi esa kichik banklar toifasiga kiradi. Indeks 27 turdagi koeffitsiyentlarni guruhlashtirish, respublika o'rtacha koeffitsiyenti yoki Bazel qo'mitasi talablari bilan solishtirish va reytinglash asosida aniqlanadi. Bunday yondashuv bank sektori holatini xolis baholash va uning dinamikasini kuzatish imkonini yaratadi. Reytingning doimiy yangilinishi sektorda raqobat muhitini kuchaytiradi, moliyaviy tizimga ishonchni mustahkamlaydi hamda xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bu amaliyot xalqaro moliyaviy institutlar tajribasiga ham mos keladi. Hisobot davrida bank tizimi aktivlari jami 863 trln so'mni (71,2 mlrd dollar) tashkil etdi, majburiyatlar esa 734 trln so'mga (60,6 mlrd dollar) yetdi. Kreditlash sur'ati mo'tadil ravishda sekinlashib, 14

foiz darajani qayd etdi. Shu bilan birga, jamg'arma va omonatlar o'sishi yuqori darajada saqlanib, taxminan 28 foizni tashkil etdi. Valyuta operatsiyalari ulushi kamaymoqda, bu esa milliy valyuta rolining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Sof foyda 9 trln so'mga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan chorak qismiga ko'p. Kapital rentabelligi esa 11,2 foizga oshdi. Sektor o'zgaruvchan kon'yunktura sharoitida ham iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlab, moslashuvchanlikni namoyon etmoqda.

Ko'rib chiqilgan davrda muammoli kreditlar ulushi o'tgan yildagi 4,2 foizdan 3,8 foizgacha pasaydi, bu esa kredit portfelini sifatini yaxshilaganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim banklarda mazkur ko'rsatkich hali ham o'rtacha darajadan yuqori saqlanmoqda. Kapital yetariligi ko'rsatkichlari minimal normativdan 1,3 barobar yuqori darajada bo'lib, bu bank sektori barqarorligini tasdiqlaydi. Yirik banklar faolligi bo'yicha uchinchi chorak natijalari sektor yetakchilari o'z barqaror pozitsiyalarini saqlab qolganini ko'rsatdi. Birinchi to'rtlik ("Kapitalbank", "Trast bank", "Hamkor bank" va "Oriyent finans bank") umumiy reytingdagi o'rnini saqlab

qoldi. Bu ularning keng filiallar tarmog'i, diversifikatsiya qilingan portfelini va mustahkam mijozlar bazasi kabi raqobat afzalliklarini tasdiqlaydi.

O'rta segmentda sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. "Ipak yo'li" banki o'z natijalarini yaxshilab, ilk bor kuchli beshlikka kirdi. Shuningdek, "Infinbank", "Davrbank", "Oriyent finans bank", "Ipoteka bank" va "Asaka bank" ham umumiy reytingda o'z pozitsiyalarini yaxshiladi. Eng katta o'sishni "Milliy bank" namoyon etdi — u umumiy reytingda ikki pog'ona yuqoriladi. Shu bilan birga, beshta yirik bank umumiy reytingdagi pozitsiyalarini yo'qotdi. Ular orasida eng katta pasayish "Xalq banki"da (uch pog'ona) va "Tenge bank"da (ikki pog'ona) kuzatildi. Shuningdek,



to'rtta tijorat banki ("BRB bank", "O'zsanoatqurilishbank", "Mikrokreditbank" va "Agrobank") o'z mavqeini saqlab qoldi. Moliyaviy vositachilik tahliliga ko'ra, ayrim banklarda resurslarni jalb etish va joylashtirish samaradorligi pasaydi. Jumladan, "Ipak yo'li banki", "Invest finans bank", "Davrbank", "Xalq banki", "Mikrokreditbank", "Aloqa bank" va "Turon bank" bir pog'onaga pasaydi. Bu holat depozitlar va majburiyatlar tuzilishidagi o'zgarishlar ko'rsatkichlarga qay darajada sezgir ekanini aks ettiradi. Moliyaviy ommaboplik indikatorini bo'yicha ko'rsatkichlar bir qator banklarda pasaydi. Jumladan, "Anor bank" — uch pog'onaga, "Asaka bank" va "Agrobank" — ikki pog'onaga,

"Aziya Alyans bank", "Davrbank", "O'zsanoatqurilishbank", "Xalq banki", "Ipoteka bank" va "Turon bank" esa bir pog'onaga pasaydi. Bu holat filiallar yuklamasining ortishi va kredit risklarining konsentratsiya darajasi oshishi bilan izohlanadi. Aktivlar sifatini ko'rsatkichi bo'yicha "Ipoteka bank" so'nggi o'rnini saqlab qoldi, "Davrbank" esa bir vaqtning o'zida olti pog'onaga pastladi. Shuningdek, "Anor bank" uch pog'ona, "Hamkor bank", "Tenge bank" va "Xalq banki" esa ikkita pog'ona orqaga surildi. Sektorda foyda dinamikasining umumiy ijobiy yo'nalishiga qaramay, ayrim banklar daromad olish salohiyati bo'yicha pasayishni ko'rsatdi. "Agrobank" o'zining zaif pozitsiyalarini saqlab qoldi. Shu bilan birga, "Hamkor bank", "Anor bank", "Tenge bank" va "Turon bank" ushbu toifada bit-

uch pog'onadan, "Trast bank" ikki pog'onadan, "Kapitalbank" va "Ipoteka bank" esa bittadan pog'ona pastladi. Shunday qilib, tahlil natijalari sektorning yirik ishtirokchilarida barqarorlik saqlanayotganini, o'rta segmentda esa qayta guruhlanish jarayonlari kechayotganini ko'rsatmoqda.

Joriy yilning uchinchi choragida 15 ta kichik bank orasida faollik reytingi yangilandi. Kichik banklar guruhida yetakchilikning konsentratsiyasi birinchi beshlik o'z pozitsiyasini likvidlik, daromadlilik va aktivlar sifatining barqaror ko'rsatkichlari hisobiga saqlanib qolmoqda. Reytingdagi harakatlar asosan o'rta segmentda kuzatilmoqda, ya'ni bir qator banklar moliyaviy vositachilikni kuchaytirish va nofoiz daromadlarni oshirish hisobiga 1-2 pog'onaga yuqorilgan bo'lsa, boshqalari faoliyat samaradorligining pasayishi va foiz marjasining qisqarishi sabab pastga tushgan. Kichik banklar guruhida 15 ta moliyaviy muassasaning 8 tasi, jumladan reyting yetakchisi "Universal bank", o'z pozitsiyalarini saqlab qoldi. Shu bilan birga, to'rtta bankda pasayish qayd etildi. Eng katta yo'qotishni "Madad invest bank" ko'rsatib, ikki pog'ona pastladi. Aksincha, "Eron Soderot banki" va "AVO bank" ikkita pog'ona yuqoriladi, "TVS bank" esa bitta pog'ona ko'tarilib, guruh umumiy reytingida ikkinchi o'rin egalladi.

Natijalarga ko'ra, depozitlarni faol jalb etayotgan va bir vaqtning o'zida qarz mablag'lariga kamroq bog'liq bo'lgan banklar eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda. Xizmatlar kengroq qamrab olingan va kreditlar nisbatan barqaror taqsimlangan moliyaviy muassasalarda pozitsiyalar ham mustahkamroq saqlanmoqda. Reytingdagi yo'qotishlar asosan muammoli kreditlar o'sishi bilan bog'liq, sof kredit portfeliga ega banklar esa yuqori o'rinlarni saqlab qolmoqda. Daromadlilikka qo'shimcha daromad manbalari va xarajatlarni samarali boshqara olish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, sektorda likvidlik barqarorligicha qolmoqda.

## Raqamli texnologiyalar vaziri AQShning yetakchi kompaniyalari bilan uchrashuv o'tkazdi



Toshkent shahridagi Hyatt Regency Toshkent mehmonxonasida Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatovning AQSh Savdo palatasi tashabbusi bilan mamlakatimizga tashrif buyurgan amerika kompaniyalari delegatsiyasi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda AQShning yetakchi texnologik va innovatsion kompaniyalari — Apple, Amazon Project Kuiper, Mastercard, Meta, Plug & Play Tech Center, Illumina hamda qator boshqa yirik kompaniya va tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar.

Muloqot chog'ida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, sun'iy intellektni davlat boshqaruvi va biznes jarayonlariga joriy etish, startaplar va innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, AT-ta'lim va raqamli infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha hamkorlik istiqbollari atroflicha muhokama qilindi.

Shu bilan birga, amerikalik kompaniya vakillari O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil islohotlarga yuqori baho berib, mamlakatdagi investitsiya muhiti va yangi imkoniyatlarga katta qiziqish bildirdilar.

Uchrashuv yakunida tomonlar O'zbekistonda raqamli texnologiyalar, startaplar va axborot xavfsizligi yo'nalishlarida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqish yuzasidan kelishib oldilar.







Toşkent viloyati, Nuqafshon shahridagi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Z.B.Turgunov 2023 yil 30 iyun kuni vafot etgan Xasanov Shavkat Kimovichga nisbatan meros ishi ochilganligini ma'lum qiladi.

Marxum Xasanov Shavkat Kimovichning merosxohlari mavjud bo'lsa, Toşkent viloyati, Nuqafshon shahar, Toşkent yili kuchi, 55-a uyda joylashgan notarial idoraga shaxsingizni tasdiqlovchi pasport bilan kelib ariza e'zishingiz s'uraladi.

ООО «Trade King» (ИНН 306000920), зарегистрированное по адресу: г. Ташкент, Бектемирский район, улица Олтинтопан, дом 39), уведомляет своих кредиторов об уменьшении уставного капитала с 3 874 527 250,00 (три миллиарда восемьсот семьдесят четыре тысячи пятьсот двадцать семь тысяч двести пятьдесят) сумов до 1 089 311 250 (один миллиард восемьдесят девять миллионов триста одиннадцать тысяч двести пятьдесят). Претензии принимаются в течение 30 дней со дня публикации объявления по юридическому адресу Общества.

На основании решений Нукусского межрайонного экономического суда от 7 октября 2025 г. в отношении должников открыто ликвидационное производство и этими решениями ликвидационным управляющим назначен Б.Утегенов.

№	Наименование предприятий	Номер дело	ИНН
1	ООО «AQMANGIT JAN-XOJA BATIR»	4-2301-2502/1929	304619618
2	ООО «ALTAY XALQARA SAWDASI»	4-2301-2502/1931	310252433
3	ООО «BETEPOK»	4-2301-2502/1921	311342154
4	ООО «DELAWARE»	4-2301-2504/1922	310161214
5	ООО «DESCANSAR»	4-2301-2504/1928	309792734
6	ООО «DUSON JANOME»	4-2301-2504/1919	308973968
7	ООО «DOSBERGENOVNA»	4-2301-2502/1918	309677210
8	ООО «JAYELMAD GROUP»	4-2301-2504/1915	309593055
8	ООО «ZOLOTOY KRISTALL»	4-2301-2504/1917	308893577
10	ООО «LIDER PLUS»	4-2301-2502/1932	311626607
11	ООО «MIR KOPIR TRADE»	4-2301-2502/1960	308352427
12	ООО «NARGIZA OPTOM SAWDA»	4-2301-2502/1920	309934548
13	ООО «NEW MARAL TORG»	4-2301-2502/1916	304657476
14	ООО «OSTANKINO»	4-2301-2502/1923	310705080
15	ООО «SULTAN SARAY QURILISI»	4-2301-2502/1925	305838581
16	ООО «SHER BABUR ZARIP»	4-2301-2504/1926	307487418
17	ООО «EKO EXPORT SERVICE»	4-2301-2502/1927	304104357

Требования и заявки от кредиторов, принимаются в течении одного месяца со дня опубликования настоящего объявления по адресу: Республика Каракалпакстан, г.Нукус, ул. А.Тимура 112А, кабинет 109. Тел.+99890 709 90 56. В связи с чем, кредиторское собрание должников состоится в 11.00 ч. 19 ноября 2025 года по вышеуказанному адресу. В повестке дня: отчет ликвидационного управляющего, рассмотрение утверждения реестров кредиторов должников; рассмотрение заключений, составленных должникам на основании постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13.08.2014г. за №22ч.

Участникам собрания кредиторов иметь при себе соответствующую доверенность.

Не сданные в течении 10 дней печати и штампы предприятий считаются утерянными и не действительными.

Самарканд шаҳар иқтисодий судининг 2025 йил 8 октябрдаги 4-1401-2503/12799-сонли ажрим билан Самарканд вилоятидаги "Духоба" МЧЖга (СТИР 203073084) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, қузатув жорий қилинган. Ширинбоев Абдуфотих муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

Мазкур қарздор қорхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 8 ноябрь кунини соат 11.00 да Самарканд шаҳри, Кўксарой майдони, 1-уй, 4-қаватда жойлашган Давлат активларини бошқариш агентлигининг Самарканд вилояти ҳудудий бошқармасида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилишида "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида юқорида қайд этилган манзилда қабул қилинади. Тел: +99893-230-43-34.

Когон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 13 октябрдаги 4-2002-2501/4271-сонли ажримга асосан "Ochilov fauz biznes" (СТИР 303687227) МЧЖга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, қузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи лавозимига Тўхтаев Фурқат Баходирович тайинланган.

Ишни 2025 йил 27 ноябрь кунини соат 10.00 да Когон туманлараро иқтисодий суди биносида бўладиган очик суд мажлиси муҳокамасида кўриб чиқиш белгиланган.

Шунга кўра, 2025 йил 14 ноябрь кунини соат 15.00 да Бухоро вилояти, Бухоро шаҳар Б.Нақшбанд кўчаси, 299-уйда ("Амубухороканалқурилиш" АЖ маъмурий биноси) муваққат бошқарувчининг ҳисоботи, кредиторлар реестрини тасдиқлаш, муваққат бошқарувчига тўланадиган ҳақ миқдори, "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддаси ва ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалаларга оид кун тартиби асосида кредиторларнинг биринчи йиғилиши ўтказилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан Бухоро вилояти, Бухоро шаҳар Б.Нақшбанд кўчаси 299-уйда танишиб чиқиш мумкин. Тел: +99893-960-99-00.

Кредиторлар йиғилишига 30 дақиқа қолганда рўйхатга олиш бошланади. Йиғилишда вакиллар қатнашиш ҳуқуқи берилган ишонч хатларининг асл нусхаси ва шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этгандан кейин иштирок этадилар.

Кредиторлар қарздорга бўлган талабларини ёзма шаклда кредиторлик қарзини тасдиқловчи барча ҳужжатларни илова қилган ҳолда эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида муваққат бошқарувчи тақдим қилишлари мумкин.

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ /  
REKLAMA VA E'LONLAR BO'LIMI



+998 (99) 353-55-54

telegram  
BIZNES DAILY BIRJA

Muqaddas Axmedova, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchilar taklifi inobatga olinmoqda



Keyingi yillarda mamlakatimizda yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shunday bo'lsa-da bu yo'nalishda hali amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar borligini kuzatish mumkin. Chunonchi, tuman (shahar) hokimliklari tasarrufidagi bo'sh turgan yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va realizatsiya qilish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni qayta ijaraga berish tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga bo'lgan huquqlarni

to'liq davlat ro'yxatidan o'tkazish shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ijaraga olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining bir qismini boshqa shaxsga o'tkazish, mahsulot yetishtiruvchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklarining o'z tovarlari (ishlari, xizmatlari) bahosini belgilashga, erkin realizatsiya qilishiga yoki tasarruf etishiga aralashishi yoki to'sqinlik qilish holatlari uchrashmoqda.

Shularning barchasi inobatga olinib hamda Prezidentimizning 2025-yil 12- sentyabrda "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta'minlash va yerdan foydalanish sama-

radorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi bir guruh deputatlari tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Loyihada Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Yer kodeksi hamda "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunga 3 ta muhim masala yuzasidan qo'shimchalar kiritilishi nazarda tutilmoqda.

Birinchi, bugungi kunda amaliyotda ijara huquqi asosida olingan yer uchastkasini realizatsiya yoki hadya qilish imkoniyati mavjud. Taklif qilinayotgan qonun loyihasi esa ijaradagi yerning bir qismini ham realizatsiya qilish sharoitini yaratishga qaratilgan. Jumladan, Yer kodeksining 24<sup>5</sup>-moddasi, ya'ni "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijaraga berish)" moddasi to'ldirilmoqda. Ya'ni unda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining ijarachisi ijaraga olish shartnomasi bo'yicha o'ziga ijaraga berilgan ikki yoki undan ortiq yer uchastkalaridan biri yoki bir nechta bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishi (qisman qayta ijaraga berishi) mumkinligi belgilanmoqda. Bunda qayta ijaraga beriladigan va ijaraga oluvchini o'zida qoladigan yer uchastkalarining maydoni Yer kodeksining 46<sup>1</sup>-moddasida belgilangan o'chamlardan kam bo'lmashligi, yer tuzish loyihasiga muvofiq konturlar yaxlitligi saqlab qolinishi lozimligi ko'rsatilmoqda. Bu o'z navbatida, fermer xo'jaliklari aksariyat holatlarda moliyaviy imkoniyati, texnikasi, ishchilar sonidan kelib chiqib, yer uchastkasini to'liqligicha emas, balki bir qismini ijaraga berish tartibini joriy etishga olib keladi.

Ikkinchidan, Konstitutsiyamizning 67-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanishi belgilanganligidan kelib chiqib, bu normani jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda mustahkamlab qo'yish taklif etilyapti. Bunda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 241<sup>1</sup> - xususiy mulk huquqini buzish to'g'risidagi moddasiga nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi hamda boshqa davlat organining va davlat tashkilotining mansabdor shaxsi yoki xizmatchisi tomonidan xususiy mulkdorlarning huquqlarini buzish yo'li bilan ularga zarar yetkazish turlariga tovarlar (ishlar, xizmatlar) va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishiga va realizatsiya qilinishiga aralashganlik yoxud to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlik choralarini ham qo'shish normasi kiritilmoqda. Agar bu holat ma'muriy jazo qo'lanilganidan so'ng takroran sodir etilsa, Jinoyat kodeksining shu mazmundagi 192<sup>1</sup>-moddasi birinchi qismiga ham huddi shu kabi qo'shimcha kiritilishi nazarda tutilmoqda. Bu bilan mansabdor shaxslarning fermerlar va boshqa tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga mahsulot turini tanlashi, bahosini belgilashi hamda realizatsiya qilishiga aralashishi holatiga nisbatan javobgarlik o'rnatilmoqda.

Uchinchi, amaliyotda aksariyat hollarda fermer xo'jaligi rahbari davlat fuqarolik xizmatiga o'tgan paytda o'z vakolatini oila a'zolaridan biriga o'tkazish imkoniyati mavjud emasligi qonunchilik talablarining buzilishiga olib kelmoqda. Shu bois qonun loyihasi bilan "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunning "Yerdan foydalanish" deb nomlangan 13-moddasida fermer xo'jaligi boshlig'i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydigan ishga qabul qilingan taqdirda, fermer xo'jaligini o'z oila a'zolaridan biriga berishi mumkinligini nazarda tutuvchi norma o'z ifodasini topmoqda.

Zamira Tojiyeva.

# Raqamli platformalar bozorida raqobat: milliy va xalqaro tajriba



Bu masala poytaxtimizda bo'lib o'tgan "Platformalar iqtisodiyoti: raqobat qonunchiligi va raqamli platformalarning bozor hukmronligi" mavzuidagi xalqaro konferensiyada muhokama qilindi.

Tadbir Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi va BRICSning Raqobat siyosati markazi bilan hamkorlikda tashkilashtirildi. Unda Buyuk Britaniya, Italiya, Shveysariya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Braziliya, Gruzziya, Misr, Hindiston, Belarus va Qozog'istonning monopoliyaga qarshi davlat organlari, raqamli bozorlarni tartibga solish bo'yicha regulyatorlar, ilmiy-tadqiqot markazlari vakillari, xalqaro tashkilotlarning yetakchi ekspertlari va raqamli platformalar vakillari ishtirok etishdi. Xalqaro konferensiyani Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi Halilillo Turaxo'jayev kirish so'zi bilan ochib, raqamli bozorlarni tartibga solish sohasida xalqaro tajribani o'rganish va zamonaviy mexanizmlarni joriy etishning muhimligini ta'kidledi. Shuningdek, raqamli platformalar bugungi kunda nafaqat iqtisodiyotda, balki jamiyat hayotida ham muhim o'rin tutishini qayd etib, ularni adolatli va raqobatbardosh muhitda rivojlantirish uchun ishonchli huquqiy asos zarurligini alohida urg'uladi. E'tirof etilganidek, O'zbekistonning jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti raqamli platformalar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Ularning yangi bozorlarga kengayishi shiddatli raqobat mavjud bo'lmaganda yangi foydalanuvchi ma'lumotlariga kirishni anglatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston bir vaqtning o'zida bir necha tomondan, ya'ni global monopoliyalar



(Microsoft, Meta, Amazon va boshqalar), Rossiya va Osiyo davlatlarining yirik mintaqaviy bozor ishtirokchilari va mahalliy biznes tomonidan kengayish nishoniga aylanib bormoqda. Shu bois rivojlanayotgan raqamli bozor sharoitida monopoliyaga qarshi tartibga solishning adolatli bozor sharoitlarini yaratish va qo'llab-quvvatlashdagi roli ayniqsa muhimdir. Raqamli platformalar va ularning moslashuvchan biznes modellari o'zgaruvchan tartibga soluvchi muhitlarga osongina moslashishini tan olish ham muhimdir. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ushbu moslashuvchanlikni hisobga olishi va qattiq ma'muriy usullarga emas, balki bozor dinamikasini kuzatish, maqsadli aralashuvlarni amalga oshirish va bozor tuzilmasini moslashtirishga tayanishi kerak. Shundan kelib chiqib, konferensiyadagi ma'ruzalar monopoliyaga qarshi

tartibga solishning ikkita asosiy yo'nalishining moslashuvchanligini oshirishga qaratildi. Ya'ni bozor hokimiyatining yangi shakllarini aniqlash va platforma hamda ekotizim bozori ishtirokchilari tomonidan monopoliyaga qarshi qonunbuzarliklarni monitoring qilish dolzarb masala hisoblanishi aytiladi. Ayniqsa, platformalar va raqamli ekotizimlarning bozor kuchi, uning ko'rsatkichlari va baholash usullari, raqamli iqtisodiyotda bozor tushunchasi va uning platforma va ekotizim bilan aloqasi muhokama qilindi. Bozor hokimiyatini suiiste'mol qilish va raqamli kompaniyalarning raqobatga qarshi kelishuvlarini aniqlash uchun raqamli bozorlarni monopoliyaga qarshi monitoring strategiyasi va usullari, raqamli platformalar, shu jumladan qo'shma korxonalar, investitsiya shart-



ga qarshi kurashish xizmati rahbari o'rinbosari Andrey Siganov, Braziliya Raqobatni himoya qilish kengashining sobiq komissari Eduardo Pontual Ribeyru, Turkiya Raqobat organining raqobat masalalari bo'yicha eksperti Betyul Ayxan Demiralay va boshqalar o'z davlatlaridagi amaliyot haqida ma'lumot berishdi.

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi o'rinbosari Farrux Karabayev jurnalistlarga tadbirning maqsad-mohiyati haqida intervyu berib, mavzuning ayrim jihatiga to'xtalib o'tdi. Uning e'tiroficha, raqamli bozor an'anaviy bozorlardan o'ziga xos xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni raqamli bozorda fizik chegara yo'q. Shuning uchun uni tartibga solish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish juda qiyin. Shundan kelib chiqib qo'mita tomonidan tegishli davlat organlari bilan birga shu masala doimiy muhokama qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda esa sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda ex ante, ya'ni oldindan muayyan cheklolarni o'rnatish yo'li dunyoning ko'plab davlatlarida tanlangan. O'zbekistonda esa bu usul 2024-yilda xalqaro tajribaga mos ravishda joriy etilgan. Shu bilan birga bu yo'nalishda muvozanatni saqlash dolzarb bo'lib turibdi. Chunki, raqamli kompaniya bir vaqtning o'zida katta investor ham hisoblanadi. Shuning uchun investitsiyalar va texnologiyalarni olib kirishda tartibga solish mexanizmi innovatsiyalarning rivojlanishiga to'siq bo'lmasligi kerak. Hozir murakkab bo'lgan ushbu muvozanatni yondashuvni qo'llashga katta e'tibor qaratilayapti. Masalan, qonunchilikning buzilishiga nisbatan moliyaviy jarmalarni emas, balki profilaktika, ya'ni oldini olish targ'ib qilinib,

bozor ishtirokchilari bilan ish olib borilayapti. Bugungi kunda bir qancha raqamli platformalar monopoliyaga qarshi kompayensni korporativ boshqaruv tizimida joriy qilishni boshlagan. Ayni paytda tartibga solish mexanizmini amaliyotga qanday tatbiq etish bo'yicha xalqaro ekspertlar bilan birga yo'riqnoma ishlab chiqilayapti. Bu hujjat bozor ishtirokchilariga to'g'ri yo'ldami yoki noto'g'ri yo'ldami ekanligini aniq ko'rsatib beradigan ko'makchi vazifasini o'taydi.

Konferensiyada shuningdek, raqamli bozorlarda sun'iy intellektning raqobat va bozor kuchiga ta'sirining shakllanishi, raqamli bozorlarda integratsiyani nazorat qilish - ekotizimlarni birlashtirish holati ham muhokamalar markazida bo'ldi. Mahalliy mutaxassislar xalqaro ekspertlar bilan bevosita muloqotda bo'lib, raqamli bozorlarni tartibga solish bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishga ham erishdilar. Anjuman raqobat sohasida milliy kadrlar malakasini oshirish va global yondashuvlarni O'zbekistonda qo'llash bo'yicha fikr-tajriba almashish imkoniyatini ham berdi. Tadbir yakunida Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi huzuridagi Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi, Xitoy Xalq Respublikasining Bozorni tartibga solish davlat boshqarmasi huzuridagi Raqobat siyosati va baholash markazi hamda Markaziy Osiyo Fintex Assotsiatsiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv va hamkorlik memorandumini imzolandi. Ushbu hujjat tomonlar o'rtasida uzoq muddatli, samarali va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish, raqamli iqtisodiyot sharoitida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va raqobat siyosatini rivojlantirish bo'yicha qo'shma tashabbuslarni amalga oshirishga qaratilgan.



nomalari va aktivlar almashinuvi ko'rinishidagi konsentratsiyaning "gibrid" shakllarini o'z ichiga olgan iqtisodiy konsentratsiya operatsiyalarini monitoring qilish va tekshirish, raqamli bozorlar uchun tartibga solish modelini tanlash, chunonchi ex ante shaklidagi tartibga solish yoki moslashtirilgan monopoliyaga qarshi tartibga solishning o'ziga xosligi bildirildi. O'zbekiston mahalliy iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda platforma iqtisodiyotini monopoliyaga qarshi tahlil qilishda muammoli yo'nalishlar muhokamadan o'tkazildi. Raqamli bozorlarda raqobat huquqi bo'yicha ilg'or tajribalar, raqamli bozorlarda sun'iy intellektning raqobat va bozor kuchiga ta'sirining ahamiyati, raqamli bozorlarda integratsiyani nazorat qilish, ekotizimlarni birlashtirish holati yuzasidan fikr-mulohazalar o'rtaga tashlandi. Raqamli platformalarning, shu jumladan sun'iy intellekt sohasida hukmronligi va suiiste'mollikni tiyib turish bo'yicha uyg'unlashtirilgan yagona huquqiy mexanizmlarni va yondashuvlarni ishlab chiqish va transc chegaraviy xarakterga ega bo'lgan raqamli platformalarning iqtisodiy konsentratsiya bitimlarini hamkorlikda tahlil qilish va ularda "kartel" kelishuvlari alomatlarini aniqlash kabi takliflar ilgari surildi. Xalqaro konferensiya davomida o'tkazilgan "Raqamli bozorlarda raqobat huquqi: ilg'or tajribalar" panel sessiyasida Gruzianing Raqobat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi raisi Irakli Lekvinadze, Rossiya Federatsiyasi Monopoliya-



# Сотрудничество в области здравоохранения между странами СНГ будет укрепляться

Делегация во главе с министром здравоохранения Асилбеком Худаяровым приняла участие в 38-м заседании Совета по сотрудничеству в области здравоохранения СНГ, состоявшемся в городе Душанбе (Таджикистан).

На заседании А. Худаяров выступил с докладом о проводимых в нашей стране реформах по совершенствованию системы первичной медико-санитарной помощи и приоритетах на будущее.

В рамках мероприятия также состоялись двусторонние встречи.

В частности, с директором Европейского регионального бюро Всемирной организации здравоохранения Хансом Клюге обсуждались новые проекты, направленные на совершенствование первичной медико-санитарной помощи и охрану материнства и детства, которые планируется реализовать в нашей стране.



Кроме того, министерства здравоохранения Узбекистана, Казахстана и ВОЗ договорились о подписании трёхстороннего соглашения о сотрудничестве по вопросам «Здравоохранение в регионе Приаралья».

Также Асилбек Худаяров встретился с министром здравоохранения и социальной защиты населения Таджикистана Джамолиддином Абдуллозодой. Стоит отметить, что сегодня, наряду с другими руководи-

телями стран Центральной Азии, лидеры Узбекистана и Таджикистана также активизируют дружеские отношения и вносят значительный вклад в развитие регионального сотрудничества.

В ходе встречи министры обсудили возможности расширения взаимодействия в области санитарно-эпидемиологического надзора, профилактики сердечно-сосудистых заболеваний и сахарного диабета, а также

повышения квалификации специалистов и организации обмена ими.

В ходе встречи Асилбека Худаярова с заместителем министра здравоохранения России Олегом Салагаем был сделан акцент на развитии сотрудничества между российскими научными и медицинскими центрами и ведущими медицинскими учреждениями нашей страны.

С министром здравоохранения Казахстана Акмаралом Альязаровой был обсужден вопрос проведения Дней казахстанской медицины и медицинского форума «Узбекистан — Казахстан» в четырёх регионах нашей страны с 13 по 17 октября текущего года. Также была достигнута договоренность о расширении масштабов подготовки кадров и обмена опытом в будущем.

В свою очередь, узбекская делегация посетила ряд клиник и медицинских вузов, расположенных в Душанбе, и ознакомилась с их деятельностью.

Во время заключительной сессии форума Исполнительный комитет СНГ предложил провести следующее заседание Совета в сфере здравоохранения в Узбекистане.

## Совет глав государств СНГ принял решение об учреждении формата «Содружество Независимых Государств плюс»



В СНГ учрежден новый формат взаимодействия – «Содружество Независимых Государств плюс». Соответствующее решение было принято на заседании Совета глав государств СНГ 10 октября в Душанбе.

Данный формат был инициирован Президентом Республики Казахстан Касым-Жомартом Токаевым.

Формат «Содружество Независимых Государств плюс» станет платформой для сотрудничества стран СНГ с другими государствами, их объединениями и международными организациями, заинтересованными в установлении взаимодействия с Содружеством по направлениям, представляющим взаимный интерес.

Решением определяется порядок приглашения и формат участия заинтересованных сторон в проводимых под эгидой Содружества мероприятиях, рассмотрения обращений об установлении взаимодействия по интересующим направлениям.

В частности, председательствующее в Содружестве государство во взаимодействии с Исполнительным комитетом СНГ и при отсутствии возражений со стороны стран Содружества приглашает заинтересованные государства, их объединения и международные организации на проводимые под эгидой Содружества Независимых Государств мероприятия и заседания высших органов СНГ, не носящие закрытый характер, а также согласовывает формат их участия.

Совет глав государств поручил Исполнительному комитету СНГ проинформировать Секретариат ООН и исполнительные органы других соответствующих международных организаций об учреждении формата «Содружество Независимых Государств плюс».



## Встреча по инвестиционному и промышленному сотрудничеству между Узбекистаном и Францией

Глава МИПТ Лазиз Кудратов встретился с чрезвычайным и полномочным послом Французской Республики в Узбекистане Валидом Фуком.

В ходе беседы обсуждены текущее состояние и перспективы дальнейшего укрепления узбекско-французского сотрудничества, включая реализацию совместных инвестиционных проектов, развитие торгово-экономических связей, а также расширение взаимодействия в энергетике, промышленности, транспорте и туризме.

За январь–август 2025 года товарооборот между Узбекистаном и Францией составил \$991,2 млн, что на 18,5% больше, чем за аналогичный период прошлого года. Рост показателя обеспечен активизацией сотрудничества в машиностроении, химической, текстильной и фармацевтической отраслях, а также расширением поставок современного оборудования и технологий французских компаний для промышленных проектов в Узбекистане.

Подчеркнута важность эффективного исполнения принятых «дорожных карт» и практической реализации договоренностей, достигнутых по итогам визита на высшем уровне. Глава МИПТ отметил, что Узбекистан придает большое значение укреплению стратегического партнерства с Францией и заинтересован в дальнейшем расширении взаимовыгодного сотрудничества, в том числе в рамках предстоящего заседания Межправительственной комиссии и совместного бизнес-форума.






# O'zbekiston Respublikasida korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1 oktyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz ma'lumotlar asosida)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

## I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, respublikada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 460,3 mingtani tashkil etdi. Shundan 390,3 mingtasi yoki 84,8 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.



1 oktyabr holatiga

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
2025	460 329	394 321	390 315
2024	466 442	402 802	399 031
2023	486 232	422 373	418 711
2022	577 994	513 333	509 720
2021	538 466	475 349	472 273

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami nisbatan yuqori ulushini Toshkent shahri (22,9 foiz), Toshkent (9,7 foiz), Samarqand (8,6 foiz), Farg'ona (8,0 foiz) va Qashqadaryo (6,4 foiz) viloyatlari tashkil etadi.


Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Toshkent shahrida 90,4 foiz, Navoiy – 88,0 foiz, Xorazm 87,3 foiz hamda Toshkent viloyatlarida 87,1 foizni tashkil etdi.

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Resp.	23 166	19 153	19 060
Andijon viloyati	26 110	20 795	20 654
Buxoro viloyati	28 114	24 410	24 268
Jizzax viloyati	17 911	14 821	14 731
Qashqadaryo viloyati	29 534	24 329	24 149
Navoiy viloyati	20 505	18 040	17 946
Namangan viloyati	26 194	21 814	21 650
Samarqand viloyati	39 539	33 395	33 171
Surxondaryo viloyati	23 973	19 913	19 827
Sirdaryo viloyati	11 651	9 595	9 522
Toshkent viloyati	44 620	38 850	38 471
Farg'ona viloyati	36 977	30 648	30 427
Xorazm viloyati	26 442	23 093	22 961
Toshkent shahri	105 593	95 465	93 478

## Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi savdo tarmog'ida bo'lib, ularning jami korxonalar sonidagi ulushi 32,5 foizni tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar jami soniga nisbatan ulushi




Ikkinchi o'rinda sanoat 12,6 foizni, uchinchi o'rinda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 7,2 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat – korxonalar umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		tadbirkorlik subyektlari	kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	33 223	32 753	32 625
Sanoat	57 799	57 633	56 820
Qurilish	149 470	28 928	28 649
Savdo	16 816	149 444	148 659
Tashish va saqlash	29 325	16 751	16 558
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11 241	29 239	29 099
Axborot va aloqa	13 161	10 953	10 746
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	39 539	10 013	9 893
Boshqa turlar	120 109	58 607	57 266

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

Tadbirkorlik subyektlari



### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan 394,3 mingta tijorat tashkilotlaridan qariyb 308,0 mingtasi (78,1 foiz) mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.


Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (% da)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	307 964	78,1
Xususiy korxonalar	46 568	11,8
Oilaviy korxonalar	36 069	9,1
Aksiyadorlik jamiyati	633	0,2
Boshqalar	3 087	0,8

Hududlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
O'zbekiston Respublikasi	17 188	4 134	13 054
Qoraqalpog'iston Resp.	197	73	124
viloyatlar:			
Andijon viloyati	393	126	267
Buxoro viloyati	351	121	230
Jizzax viloyati	240	102	138
Qashqadaryo viloyati	157	78	79
Navoiy viloyati	299	111	188
Namangan viloyati	245	98	147
Samarqand viloyati	643	262	381
Surxondaryo viloyati	482	66	416
Sirdaryo viloyati	268	88	180
Toshkent viloyati	2 174	470	1 704
Farg'ona viloyati	589	224	365
Xorazm viloyati	188	61	127
Toshkent shahri	10 962	2 254	8 708

O'zbekistonda oxirgi besh yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarining umumiy soni 1,8 barobarga, shu bilan birga xorijiy korxonalarining ulushi (jamiga nisbatan) 53,7 foizdan 75,9 foizgacha oshgan.

2025-yil 1-oktyabr holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan 17 188 ta korxonalaridan 4 134 tasi qo'shma korxonalar va 13 054 tasi xorijiy korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

#### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar



2025-yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalarining soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 287 ta korxonalar yoki 15,3 foizni tashkil etgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 5 295 tadan 6 134 taga, (o'sish 839 taga), sanoat sohasida 3 234 tadan 3 579 taga (o'sish 345 taga) va qurilish sohasida 1 079 tadan 1 322 taga (o'sish 243 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>17 188</b>	<b>4 134</b>	<b>13 054</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	432	190	242
Sanoat	3 579	1 406	2 173
Qurilish	1 322	275	1 047
Savdo	6 134	993	5 141
Tashish va saqlash	567	123	444
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	706	153	553
Axborot va aloqa	1 295	186	1 109
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	205	80	125
Boshqa turlar	2 948	728	2 220

#### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 4 570 ta korxonalar bilan Xitoy Xalq Respublikasi egalladi. Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,6 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib, hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya (18,3 foiz), Turkiya (11,9 foiz), Qozog'iston (6,8 foiz), Janubiy Koreya (4,0 foiz) va Afg'oniston (3,6 foiz) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Xitoy	4 570	693	3 877
Rossiya	3 150	891	2 259
Turkiya	2 048	476	1 572
Qozog'iston	1 165	275	890
Afg'oniston	616	76	540
Janubiy Koreya	681	183	498
BAA	377	129	248
Tojikiston	364	96	268
Hindiston	343	85	258
AQSH	325	144	181
Qirg'iz Respublikasi	339	89	250
Ozarbayjon	333	64	269
Turkmaniston	244	50	194
Belarus	236	61	175
Buyuk Britaniya	241	120	121
Eron	223	71	152
Germaniya	228	108	120
Ukraina	187	50	137
Pokiston	176	18	158
Yaponiya	117	29	88

#### Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

**“Бизнес-Daily Медиа”**  
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир

**У. ПУЛАТОВ**

#### Мурожаат учун

**Тел.:**  
+998 (99) 353-55-54

**E-mail:**  
biznesdm 2020@gmail.com

**Манзил:**  
100000, Тошкент шаҳри,  
Амир Темури кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily “Биржа”дан кўчириб босиш фақат

“Бизнес-Daily Медиа” НУ МЧЖ руҳсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily “Биржа” оригинал макети.

© Газета текин тарқатилади



telegram  
BIZNES DAILY BIRJA